



NEMIS TILIDA YOZMA VA OG'ZAKI NUTQNI PARALLEL RIVOJLANTIRISH

*Termiz davlat Pedagogika institute Xorijiy til va adabiyot fakulteti nemis tili
yõnalishi 202-guruh talabasi
Abdulazizova Maftuna Azizbek qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada nemis tilida yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishning samarali usullari yoritiladi. Nemis tilini o'rghanishda kommunikativ yondashuv, audio va yozma materiallardan foydalanish muhim ekani ta'kidlanadi. Shuningdek, amaliy maslahatlar berilib, natijaviylikni oshirishga yordam beruvchi vositalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: nemis tili, yozma nutq, og'zaki nutq, kommunikativ yondashuv, o'rghanish usullari.

Nemis tili dunyodagi eng muhim tillardan biri bo'lib, ilm-fan, biznes va ta'lif sohalarida keng qo'llaniladi. Ushbu maqolada ushbu tilni o'rghanish jarayonida yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish bo'yicha samarali usullar tahlil qilinadi.

Nemis tilida yozma va og'zaki nutqni parallel ravishda rivojlantirish uchun kommunikativ yondashuv juda samarali hisoblanadi. Bu usul o'quvchini real hayotiy vaziyatlarga moslashishga undaydi va tilni tabiiy ravishda o'zlashtirishiga yordam beradi. Muhim jihatlardan biri tilni kontekstda qo'llashdir, ya'ni o'quvchilar so'z va iboralarni faqat yodlash bilan cheklanmay, ularni real suhbatlarda, yozma mashqlarda va interaktiv faoliyatlarda ishlatishadi.

Og'zaki nutqni rivojlantirish uchun muloqotga asoslangan mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Suhbatlar, rostdan ham mavjud bo'lgan yoki tasavvur qilingan vaziyatlarga oid rolli o'yinlar va juftlikda ishslash metodlari o'quvchini faol gapirishga rag'batlantiradi. Eshitish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish



uchun esa audio va video materiallardan foydalanish, nemis tilida yangiliklar tinglash, podkast eshitish foydali bo‘ladi. Yozma nutq esa og‘zaki nutq bilan parallel rivojlanishi uchun, kundalik yoki insho yozish, xat va elektron pochta matnlarini yaratish kabi mashqlar muhim ahamiyatga ega. O‘quvchi o‘z fikrlarini yozma shaklda ifodalashni o‘rganishi uchun, real hayotga yaqin mavzularda yozishga odatlanishi kerak. O‘qish jarayonida o‘quvchilar turli matnlarni o‘rganib, ulardan yangi iboralarni o‘zlashtirishadi va yozish malakalarini oshiradilar. Kommunikativ yondashuvning yana bir muhim jihatni til o‘rganish jarayonida real nutq muhitini yaratishdir. Agar imkon bo‘lsa, nemis tilida so‘zlashuvchi insonlar bilan muloqot qilish, forumlarda ishtirok etish, ijtimoiy tarmoqlarda nemis tilida yozish va javob olish kabi faoliyatlar samarali bo‘ladi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘zaro hamkorlikda ishlashlari va tilni faol qo‘llashlari muhimdir. Shunday qilib, kommunikativ yondashuv yordamida yozma va og‘zaki nutqni parallel rivojlantirish uchun real muloqot sharoitlarini yaratish, faol tinglash va yozish mashqlarini amalga oshirish, shuningdek, til o‘rganish jarayonini doimiy va tabiiy qilish zarur. Bu metod orqali o‘quvchilar nafaqat grammatikani bilishadi, balki tilni amaliy jihatdan ishlatalishga ham o‘rganishadi. Nemis tili dunyodagi eng muhim tillardan biri bo‘lib, ilm-fan, biznes va ta’lim sohalarida keng qo‘llaniladi. Ushbu maqolada ushbu tilni o‘rganish jarayonida yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirish bo‘yicha samarali usullar tahlil qilinadi. Nemis tilida yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun muntazam mashq qilish zarur. Har kuni kichik harakatlar qilish, audio va yozma materiallar bilan ishlash, amaliy muloqotga kirishish til o‘rganishda sezilarli natija beradi. To‘g‘ri yondashuv orqali nemis tilini mukammal o‘zlashtirish mumkin. Og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun har kuni nemis tilida gaplashishga harakat qilish, nemis tilidagi podkastlar, audiokitoblar va videodarslarni tinglash, o‘z-o‘ziga savollar berish va javob berish orqali mustaqil mashq qilish, nemis tilida suhbatlashuvchi do‘sit yoki tutor topish va qo‘schiqlarni tinglab, ularni kuylash orqali talaffuzni yaxshilash muhimdir. Yozma nutqni



rivojlantirish uchun esa kundalik yuritish va har kuni sodda jumlalar yozish, nemis tilida insholar va kichik maqolalar yozish, internet forumlari yoki ijtimoiy tarmoqlarda nemischada yozishish, grammatik qoidalarni o‘rganish va ularni amaliyatda qo‘llash hamda o‘qilgan matnlarni o‘z so‘zlari bilan qayta yozish kabi usullar juda foydalidir. Nemis tilida yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishga intilayotgan har bir kishi o‘ziga mos usulni tanlab, doimiy mashq qilishi lozim.

Og‘zaki nutqni rivojlantirish usullari

Har kuni nemis tilida gaplashishga harakat qilish.

Nemis tilidagi podkastlar, audiokitoblar va videodarslarni tinglash.

O‘z-o‘ziga savollar berish va javob berish orqali mustaqil mashq qilish.

Nemis tilida suhbatlashuvchi do‘sit yoki tutor topish.

Qo‘shiqlarni tinglab, ularni kuylash orqali talaffuzni yaxshilash.

Yozma nutqni rivojlantirish usullari

Kundalik yuritish va har kuni sodda jumlalar yozish.

Nemis tilida insholar va kichik maqolalar yozish.

Internet forumlari yoki ijtimoiy tarmoqlarda nemischada yozishish.

Grammatik qoidalarni o‘rganish va ularni amaliyatda qo‘llash.

O‘qilgan matnlarni o‘z so‘zlari bilan qayta yozish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, nemis tilida yozma va og‘zaki nutqni parallel rivojlantirish uchun kommunikativ yondashuv eng samarali usullardan biridir. Bu metod o‘quvchini real hayotiy vaziyatlarga moslashishga, tilni amaliy qo‘llashga va tabiiy ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi. Og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun faol muloqot, suhbatlar, audio va video materiallardan foydalanish muhim bo‘lsa, yozma nutqni shakllantirish uchun kundalik yozish mashqlari va real hayotga yaqin matnlarni yaratish kerak. Til muhitini yaratish va doimiy amaliyot



qilish orqali o‘quvchilar nafaqat grammatikani o‘rganishadi, balki tilni samarali ishlatalish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishadi. Shu sababli, kommunikativ yondashuv nemis tilini puxta egallashning kaliti bo‘lib, uni o‘rganishda uzlusiz muloqot va amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor qaratish zarur. Nemis tilida yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun muntazam mashq qilish zarur. Har kuni kichik harakatlar qilish, audio va yozma materiallar bilan ishlash, amaliy muloqotga kirishish til o‘rganishda sezilarli natija beradi. To‘g‘ri yondashuv orqali nemis tilini mukammal o‘zlashtirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Muhiddinov. O'quv jarayonida nutq faoliyati
2. A.G'ulomov, B.Qobilova. Nutq o'stirish mashg'ulotlari
3. T.Yo'ldoshev. Til o'rganishning asosi
4. Abdurahmanova, J. (2020). The policy of tolerance in Uzbekistan (in the case of Greeks). International Journal on Integrated Education, 2(2), 212-214.
5. Ayatov, R., & Sherov, D. (2020). Improving the Conversational Process in Foreign Language Teaching. International Engineering Journal For Research & Development, 5(1), 32-37.